



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 24 - may

I-58-95-14-220-K/23

Yangi Hayot tuman hokimligi

Yangi Hayot tumanida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, voyaga yetmagan o‘smir qizlar o‘rtasida erta tug‘ruq holatlarini oldini olish va bu bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oila institutini rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 31-dekabrda 820-son qarori va Yangi Hayot tumanida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, voyaga yetmagan o‘smir qizlar o‘rtasida erta tug‘ruq holatlarini oldini olish va mavjud muammolarni bartaraf etishga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” ijrosini ta‘minlash, tumanda erta nikoh quruvchilar, oilalar o‘rtasida ajralishlar, erta tug‘ruqlar, o‘z joniga qasd va suiqasd qilish holatlarini oldini olish, fuqarolarning oila va mahallalarda tinch-osoyshta hamda hamjihatlikda yashashiga ko‘maklashish, oilaviy nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, oila va mahallalarda ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash maqsadida, xalq deputatlari Yangi Hayot tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining o‘rinbosari-Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi I.Abdullayevaning “Yangi Hayot tumanida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, voyaga yetmagan o‘smir qizlar o‘rtasida erta tug‘ruq holatlarini oldini olish va bu bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” ijrosi to‘g‘risida”gi hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangi Hayot tumani hokimining o‘rinbosari-Oila va xotin-qizlar bo‘limi (I.Abdullayeva), sektor rahbarlari, Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha hokim o‘rinbosari (M.Kamilov), Yoshlar ishlari agentligi Yangi Hayot tumani bo‘limi (I.Jodiqov)ga:

“Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, voyaga yetmagan o‘smir qizlar o‘rtasida erta tug‘ruq holatlarini oldini olish va bu bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish” bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida sifatli ta‘minlash hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

oilalar mustahkamligini ta'minlash, oilaviy ajralishlarning oldini olish, oilaning farzand tarbiyasi borasidagi mas'uliyatini oshirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, shuningdek, namunali oilalarning hayotiy tajribasini ommalashtirish orqali voyaga yetmagan o'smir qizlar o'rtasidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash;

mamlakatimizda yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardan foydalanish, ularni sog'lom turmush tarzi bilan tarbiyalash hamda barkamol avlod qilib shakllantirish borasidagi targ'ibot ishlarini kengaytirish tasiya etilsin.

3. Tuman sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'i (Sh.Mamadaliyev) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i (Sh.Tadjiyev) bilan birgalikda:

yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, voyaga yetmagan o'smir qizlar o'rtasida erta tug'ruq holatlarini oldini olish va bu bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"da belgilangan umumlashgan o'spirin qizlarni maqsadli tibbiy ko'rikdan o'tkazish ishlarini samarali tashkil qilish va nazoratini olish;

oilalarda tibbiy madaniyatni shakllantirish va har bir kishining o'z salomatligi va bolalari salomatligi uchun mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan dasturlarni hayotga tadbiq etish orqali aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish va mustahkamlash yuzasidan ota-onalar orasida targ'ibotlarni kuchaytirish;

mutaxassislarni jalb etgan holda tumandagi ta'lim muassasalarining 9-10 va 11-sinf o'quvchilari orasida "Erta turmush qurishning salbiy oqibatlarini" va "Sog'lom oila-sog'lom jamiyat" mavzularida davra suhbatlari va seminarlarini tashkillashtirib, sahna ko'rinishlari orqali tushuntirish ishlarini olib borish;

"Xavfsiz ta'lim muassasasi" tamoyili asosida Inspektor-psixologlarni jalb etgan holda voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va muammoli o'quvchi qizlar bilan ularning ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash va mavjud muammoli vaziyatlarni o'rganib, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

4. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, voyaga yetmagan o'smir qizlar o'rtasida erta tug'ruq holatlarini oldini olish va bu bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining o'rinbosari-Oila va xotin-qizlar bo'limi (I.Abdullayeva) tomonidan xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashiga har chorakda hisobot taqdim etib borilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiya (I.Yuldasheva) hamda Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiya (U.Nishanbekova) zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashi raisi**



X.Inogamov